

**DUAL TA'LIMDA KORXONANING ROLI VA MAS'ULIYATLARI**

*Jo'rayeva Muxlisa To'yumurod qizi  
Osiyo xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada dual ta'limga tashkil qilishda korxonaning o'rni yuqori ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Korxonalarning bu tizimdagi roli va mas'uliyati, nafaqat o'quvchilarni tayyorlash, balki ishlab chiqarish va ijtimoiy rivojlanishning asosiy omili ekanligi tog'risida fikir yuritilgan. Korxonalar, o'quvchilarga amaliy tajriba berish va ularni kasbiy tayyorlash orqali jamiyat uchun sifatli ishchi kuchini tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, korxonalar ta'limga tizimida faol ishtirok etib, kelajakdagagi mutaxassislarini tayyorlashga o'z hissasini qo'shishlari zarur ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Ta'limga tizimi, maktabgacha ta'limga, boshlang'ich ta'limga, o'rta ta'limga, oliy ta'limga, dual ta'limga, o'quv dasturlari, baholash tizimi, xalqaro reytinglar

**Аннотация.** В статье подчеркивается значение предприятия в организации дуального образования. Обсуждалась роль и ответственность предприятий в этой системе, не только подготовка студентов, но и то, что оно является основным фактором производства и социального развития. Предприятия играют важную роль в подготовке качественной рабочей силы для общества, предоставляя студентам практический опыт и профессиональную подготовку. Поэтому было подчеркнуто, что предприятиям необходимо активно участвовать в системе образования и способствовать подготовке будущих специалистов.

**Ключевые слова.** Система образования, дошкольное образование, начальное образование, среднее образование, высшее образование, двойное образование, учебные программы, система оценок, международные рейтинги.

**Annotation.** The article emphasizes the importance of the enterprise in organizing dual education. The role and responsibility of enterprises in this system was discussed, not only the training of students, but also the fact that it is a main factor in production and social development. Businesses play an important role in preparing a quality workforce for society by providing students with hands-on experience and vocational training. Therefore, it was emphasized that enterprises need to actively participate in the education system and contribute to the training of future specialists.

**Keywords.** Education system, preschool education, Primary Education, Secondary Education, Higher Education, dual education, curricula, assessment system, international rankings

Dual ta'limga o'quvchining amaliy ko'nikmalarini yaxshilash, mehnat bozori bilan aloqlarini mustahkamlash hamda ish beruvchilarga mavjud texnologiyalar va ishiab chiqarish quvvatlariga mos ravishda kadrlar tayyorlash uchun mo'ljallangan. Korxona

ma'lum bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha dual ta'lim doirasida ish joyida o'qitish uchun sharoit yaratadi. Korxonaning vazifasi, birinchi navbatda, o'quvchiga amaliy ko'nikmalarini berishdir.

Dual ta'lim formatida korxona va ta'lim muassasasi o'rtasida vazifa va majburiyatlar aniq taqsimlanganda [1].

### **Korxona**

- Ta'lim muassasasi bilan birlgilikda o'quvchilarni qabul qilish boshlanishidan kamida bir oy oldin dual ta'lim to'g'risida shartnomalar tuzadi;
- Dual ta'lim doirasida o'qish muddati va korxonaga yuboriladigan o'quvchilar sonini ta'lim muassasasi bilan kelishib oladi;
- O'quvchilar bilan shartnomalar tuzadi va ta'lim muassasasi bilan kelishilgan muddatlarda o'quvchilarni qabul qiladi;
- Korxonada har bir o'quvchiga dual ta'lim dasturining amaliy qismini o'rgatuvchi ustoz tayinlaydi;
- Korxonada dual ta'lim dasturining amalga oshirilishini, o'quv mazmuni va tayinlangan ustozning vazifalarini bajarilishini ta'minlaydi;
- O'quvchilarning kasbni o'zlashtirish natijalarini baholash jarayonini tashkil qiladi;
- O'quvchining yakuniy davlat attestatsiyasida ishtiroy etadi. Bulardan tashqari, korxona quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:
- Mehnat qonunchiligiga muvofiq o'quvchilarni ishga qabul qilish;
- Korxonada ishlash bilan bog'liq dual ta'lim dasturining amaliy qismi davomida o'quvchilarni ma'lum ish joyi va zarur jihozlar bilan ta'minlash;
- O'quvchilarni korxona ustavi, ichki tartib qoidalari, xavfsizlik qoidalari, yong'in xavfsizligi va boshqa talablar bilan tanishtirish;
- O'quvchilarga korxona ustaviga muvofiq ishlab chiqarish jarayonlarida ishtiroy etish imkoniyatini berish;
- Ta'lim muassasasi bilan birlgilikda dual ta'limni joriy etish bo'yicha hisobotlar tayyorlash.

Amaliy mashg'ulotlar o'quv yili davomida o'quv rejasiga muvofiq, kuniga ko'pi bilan olti soat yoki haftasiga 36 soat o'tkazish ko'zda tutilgan[2].

### **HR menejerining mas'uliyati**

HR menejeri - korxonaning kadrlar bo'limini boshqaradigan shaxs bo'lib, dual ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

HR menejerining vazifalariga ta'lim muassasalari bilan aloqa o'rnatish va shartnomalar imzolanishini ta'minlash, korxonalar uyushmalarining dual ta'limni tashkil etishga oid yig'ilishlarida qatnashish kiradi. HR menejeri korxonada dual ta'lim uchun bo'linmalarni aniqlaydi va korxonaga qabul qilinishi mumkin bo'lган o'quvchilar sonini belgilaydi. Korxonada o'quvchi ta'limi uchun mas'ul bo'lган

ustozlarni tayinlaydi. HR menejeri ta'lim muassasasining ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha direktor o'rinosini bilan bevosita aloqada bo'lib, bu unga o'quv jarayonini tashkil etish, o'quv jarayonining qo'shma o'quv rejasi va grafigini muvofiqlashtirish imkonini beradi. Uning vazifalariga, shuningdek, o'quvchini lavozimga kirish tadbirlarini tashkil etish va korxonada o'qitishni nazorat qilish ham kiradi.

HR menejeri dual ta'limni korxonaning yillik biznes rejasiga kiritilishini ta'minlaydi.

HR menejeri dual ta'limni yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan ta'lim muassasasining tadbirlarida muntazam ishtirok etib boradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, dual ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi kichik korxonalarda HR menejeri rolini bevosita korxona rahbarlari bajaradilar [3].

### ***O'quvchilarни korxonада о'qishга тайворлаш***

O'quvchini korxonaga qo'shilishida "Lavozimga kirish" protsedurasi muhim ahamiyatga ega. Lavozimga kirish o'quvchi uchun o'zini "o'rganuvchi" va shuningdek, korxona ishiga "hissa qo'shuvchi" sifatida his qilishga ko'mak beuvchi ilk jarayondir[4]. Yangi o'quvchilar uchun bu jarayon ularni korxonada o'qitishning dastlabki kunlarida amalga oshirilishi kerak.

Lavozimga kirishning asosiy yo'nalishi o'quvchini korxonaga integratsiyasi va eng muhim ma'muriy jarayonlar, shuningdek, xodimlar bilan tanishtirishdir. Bu bevosita ish joyi va korxonada bajariladigan vazifalar bilan tanishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Tanishuv jarayoni yangi ishni muvaffaqiyatli boshlash uchun zarur bo'lgan yordam, vositalarva resurslarni, shu jumladan do'stona muhitni ta'minlaydi.

Lavozimga kirish jarayonini samarali tashkil etish korxonalar uchun foydali bo'lib, dual ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi [5].

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Anke Boussena. Jamaljan Shasalimov. To'qimachilik korxonalari ustozlari uchun dual ta'lim bo'yicha qo'llanma. 2024.
2. [https://www.pedocs.de/volltexte/2023/26392/pdf/IJRVET\\_2023\\_MarreroRodríguez\\_Standardi\\_The\\_implementation.pdf](https://www.pedocs.de/volltexte/2023/26392/pdf/IJRVET_2023_MarreroRodríguez_Standardi_The_implementation.pdf)
3. [https://www.bertelsmann-stiftung.de/fileadmin/files/BSt/Bibliothek/Doi\\_Publikationen/GP\\_Germanys\\_dual\\_vocational\\_training\\_system.pdf](https://www.bertelsmann-stiftung.de/fileadmin/files/BSt/Bibliothek/Doi_Publikationen/GP_Germanys_dual_vocational_training_system.pdf)
4. <https://dual-t.com/contenidos/en/104-guide-implementation.pdf>
5. [https://epub.sub.uni-hamburg.de/epub/volltexte/2020/96655/pdf/Duale\\_Hochschulausbildung\\_ENG\\_N\\_180605.pdf](https://epub.sub.uni-hamburg.de/epub/volltexte/2020/96655/pdf/Duale_Hochschulausbildung_ENG_N_180605.pdf)